

SAYYOR QABUL: FUQARO MUROJAATLARINING IJOBIY YECHIMI



SAYYOR QABUL: FUQARO MUROJAATLARINING IJOBIY YECHIMI

Bugun, 23-fevral kuni Termiz shahar hokimi Isroil Xudayberdiyev va shahar Xalq qabulxonasi mudiri O.Saodatov hamda mutasaddi tashkilotlar birgalikda fuqarolar uchun navbatdagi sayyor qabul o'tkazdi.

Qabul davomida imkoniyati cheklangan 4-nafar fuqaroga sog'ligini tiklashi uchun bir martalik moddiy yordam berilishi, "Temir daftar"da ro'yhatda turuvchi yosh oilaning farzandini imtiyoz asosida bog'chaga joylashtirilishi shuningdek, ish so'rab murojaat qilgan 4-nafar fuqaro "ZIF Textile" korxonasiga ishga joylashtirish masalalari joyida yechimini topdi.

Hunarmandchilik buyumlarini tayyorlash va issiqxona tashkil etish istagida bo'lgan ikki nafar fuqaroga mahalladagi hokim yordamchilarining tavsiya asosida imtiyozli kredit olish masalasi ijobiy hal etiladigan bo'ldi.

Shuningdek, 3 nafar fuqaroning tadbirkorlik qilishlari uchun joy so'rab qilgan murojaatiga amaliy yordam ko'rsatilishi belgilandi. Imtiyozli uy-joy olish uchun

subsiya ajratish masalasi yuzasidan murojaatchilarga huquqiy tushuntirishlar berildi. Ijrosi muddat talab etadigan masalalar bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi hamda ijrosini o'z vaqtida bajarilishi bo'yicha shahar hokimi tomonidan mas'ullarga qat'iy topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

